



## NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



### NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-iyun holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 22 518 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20 206 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 94,8 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 94,3 foiz) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-iyun holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda savdo (37 taga), yashash va ovqatlanish (42 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 99 taga ko‘paygan, xususiy korxonalar 104 taga ko‘paygan.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	320	89,4 %	Zarafshon sh.	145	89,0 %
Karmana t.	284	107,2 %	Nurota t.	132	109,1 %
Qiziltepa t.	243	88,0 %	Konimex t.	124	139,3 %
Xatirchi t.	230	98,7 %	Tomdi t.	73	93,6 %
Navbahor t.	196	95,6 %	G‘ozg‘on sh.	40	76,9 %
Uchquduq t.	148	92,5 %			

2023-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2023-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 748 tadan 776 taga (o'sish 28 ta), savdoda 8 268 tadan 8 291 taga (o'sish 23 ta).

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 860	89,8 %	Nurota t.	1 571	97,2 %
Karmana t.	3 268	86,6 %	Konimex t.	1 013	107,8 %
Qiziltepa t.	3 026	97,1 %	Uchquduq t.	975	103,5 %
Xatirchi t.	2 693	94,3 %	Tomdi t.	638	108,5 %
Navbahor t.	2 413	98,4 %	G'ozg'on sh.	380	118,8 %
Zarafshon sh.	1 681	97,6 %			

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil may oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 886 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 881 ta;
- yirik korxonalar 5 tani tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	305	93,0 %	Uchquduq t.	146	94,2 %
Karmana t.	272	105,8 %	Nurota t.	128	111,3 %
Qiziltepa t.	237	87,5 %	Konimex t.	122	141,9 %
Xatirchi t.	227	99,1 %	Tomdi t.	71	98,6 %
Navbahor t.	195	96,1 %	G'ozg'on sh.	40	81,6 %
Zarafshon sh.	143	89,9 %			




2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- iyun holatiga 20 317 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 180,1 foizni tashkil etdi (11 280 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,8 foiz, sanoat – 16,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,7 foiz, qurilish – 7,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,3 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 10,6 foiz.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 280	88,7 %	Nurota t.	1 388	96,5 %
Karmana t.	3 014	85,6 %	Konimex t.	884	108,6 %
Qiziltepa t.	2 793	96,6 %	Uchquduq t.	859	103,7 %
Xatirchi t.	2 404	93,8 %	Tomdi t.	558	109,6 %
Navbahor t.	2 238	98,4 %	G'ozg'on sh.	348	120,8 %
Zarafshon sh.	1 551	97,5 %			

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil may oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 595 tadan 632 taga (o'sish 37 taga), yashash va ovqatlanish – 97 tadan 140 taga (o'sish 43 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 20 tadan 25 taga (o'sish 5 taga) ko'paydi.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	305	93,6 %	Uchquduq t.	145	93,5 %
Karmana t.	270	105,9 %	Nurota t.	128	111,3 %
Qiziltepa t.	237	87,5 %	Konimex t.	122	143,5 %
Xatirchi t.	227	99,1 %	Tomdi t.	70	97,2 %
Navbahor t.	195	104,1 %	G'ozg'on sh.	40	81,6 %
Zarafshon sh.	142	89,9 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,0 foiz), Karmana (14,8 foiz), Qiziltepa (13,8 foiz), Xatirchi (11,9 foiz) va Navbahor (11,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 243	88,8 %	Nurota t.	1 382	96,2 %
Karmana t.	2 994	85,7 %	Konimex t.	875	108,7 %
Qiziltepa t.	2 783	96,7 %	Uchquduq t.	856	103,4 %
Xatirchi t.	2 400	93,9 %	Tomdi t.	555	109,3 %
Navbahor t.	2 232	98,3 %	G'ozg'on sh.	347	121,8 %
Zarafshon sh.	1 539	97,3 %			



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Navoiy sh.	223
Zarafshon sh.	52
G‘ozg‘on sh.	17
Konimex t.	323
Qiziltepa t.	299
Navbahor t.	371
Karmana t.	380
Nurota t.	380
Tomdi t.	185
Uchquduq t.	71
Xatirchi t.	307



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	657
Zarafshon sh.	329
G'ozg'on sh.	193
Konimex t.	89
Qiziltepa t.	341
Navbahor t.	278
Karmana t.	487
Nurota t.	255
Tomdi t.	90
Uchquduq t.	167
Xatirchi t.	380



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 98,3 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 133,7 foizni tashkil etdi), 6,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 108,2 foizni tashkil etdi), 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 166,7 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 130,0 foizni tashkil etdi) tashkil etgan.



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	417
Zarafshon sh.	127
G'ozg'on sh.	11
Konimex t.	34
Qiziltepa t.	206
Navbahor t.	150
Karmana t.	243
Nurota t.	106
Tomdi t.	30
Uchquduq t.	39
Xatirchi t.	88



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,9 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 107,6 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,8 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 170,6 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,3 foiz ulushni tashkil etdi.

186


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

469

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

796


Bino va  
inshootlar qurish



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	1 761
Zarafshon sh.	520
G'ozg'on sh.	69
Konimex t.	220
Qiziltepa t.	1 377
Navbahor t.	1 144
Karmana t.	1 192
Nurota t.	347
Tomdi t.	179
Uchquduq t.	357
Xatirchi t.	1 125



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 8 271 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 73,8 foiz ulushni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 17,5 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 109,4 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 108,7 foizni tashkil etdi.

**723**

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

**1 447**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


**6 120**

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	265
Zarafshon sh.	202
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	44
Qiziltepa t.	171
Navbahor t.	73
Karmana t.	187
Nurota t.	61
Tomdi t.	23
Uchquduq t.	89
Xatirchi t.	157



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 121,2 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 11,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 88,6 foiz ulushini tashkil etdi.

146

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 131

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar






2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	80
Zarafshon sh.	24
G'ozg'on sh.	4
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	31
Navbahor t.	15
Karmana t.	42
Nurota t.	9
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	39



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 16,3 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish 130,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,7 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 47,0 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish 101,6 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Navoiy sh.	141
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	32
Navbahor t.	17
Karmana t.	44
Nurota t.	10
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	12
Xatirchi t.	37



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 347 ta yoki 1,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,6 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan o'sish 120,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 200,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,9 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,8 foizni tashkil etdi;

17

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




318

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Navoiy sh.	222
Zarafshon sh.	52
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	147
Navbahor t.	54
Karmana t.	184
Nurota t.	14
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	70



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,4 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 102,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 118,6 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishi 111,5 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot**  
2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	244	115,6 %	Nurota t.	97	131,1 %
Qiziltepa t.	219	105,3 %	Konimex t.	67	197,1 %
Karmana t.	180	111,8 %	Zarafshon sh.	46	83,6 %
Uchquduq t.	132	87,4 %	Tomdi t.	26	72,2 %
Navbahor t.	107	104,9 %	G'ozg'on sh.	4	36,4 %
Xatirchi t.	98	102,1 %			




2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 22 518 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 449 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 107,2 foiz, savdoda – 106,7 foiz, tashish va saqlashda – 103,7 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida


Navoiy sh.	2 892	91,9 %	Uchquduq t.	749	105,0 %
Qiziltepa t.	2 089	101,9 %	Zarafshon sh.	570	99,1 %
Karmana t.	1 740	93,4 %	Konimex t.	439	114,3 %
Navbahor t.	1 009	102,2 %	Tomdi t.	282	104,4 %
Xatirchi t.	825	100,7 %	G'ozg'on sh.	90	121,6 %
Nurota t.	764	105,4 %			

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-may oyida tashish va saqlashda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 2 taga, yashash va ovqatlanishda 9 taga ko'paygan.


## Hududlar kesimida

Xatirchi t.	104	99,0 %	Navoiy sh.	27	44,3 %
Zarafshon sh.	89	100,0 %	Karmana t.	23	109,5 %
Navbahor t.	62	105,1 %	Nurota t.	12	109,1 %
Konimex t.	46	100,0 %	Uchquduq t.	7	-
Tomdi t.	44	137,5 %	Qiziltepa t.	7	17,9 %
G'ozg'on sh.	34	94,4 %			


2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 5 094 tani tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash sohalari (119,2 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – G'azg'on (124,3 foiz), Tomdi (124,1 foiz), Konimex (118,4 foiz), Navbahor (102,1 foiz), shahar va tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Xatirchi t.	1 018	97,1 %	Nurota t.	333	81,8 %
Zarafshon sh.	827	95,9 %	Konimex t.	245	118,4 %
Navoiy sh.	693	78,8 %	G'ozg'on sh.	230	124,3 %
Navbahor t.	586	102,1 %	Tomdi t.	216	124,1 %
Karmana t.	484	67,4 %	Uchquduq t.	69	89,6 %
Qiziltepa t.	393	83,1 %			

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Karmana t.	69	94,5 %	Konimex t.	9	150,0 %
Navoiy sh.	34	60,7 %	Uchquduq t.	7	175,0 %
Navbahor t.	26	63,4 %	Zarafshon sh.	8	53,3 %
Xatirchi t.	25	92,6 %	G'ozg'on sh.	2	50,0 %
Nurota t.	18	69,2 %	Tomdi t.	1	33,3 %
Qiziltepa t.	10	41,7 %			


2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 520 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida

Karmana t.	<b>776</b>	<b>84,5 %</b>	Konimex t.	<b>186</b>	<b>90,7 %</b>
Navoiy sh.	<b>638</b>	<b>86,1 %</b>	Zarafshon.	<b>148</b>	<b>98,0 %</b>
Navbahor t.	<b>633</b>	<b>90,6 %</b>	Tomdi t.	<b>52</b>	<b>96,3 %</b>
Xatirchi t.	<b>527</b>	<b>80,6 %</b>	Uchquduq t.	<b>35</b>	<b>116,7 %</b>
Qiziltepa t.	<b>300</b>	<b>86,0 %</b>	G'ozg'on sh.	<b>26</b>	<b>96,3 %</b>
Nurota t.	<b>266</b>	<b>95,3 %</b>			




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Boshqa turlar

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida

Navoiy sh.	5	125,0 %
Karmana t.	5	100,0 %
Nurota t.	2	200,0 %
G‘ozg‘on sh.	1	50,0 %


2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 36 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 13,8 foiz), Eron Islom (6,4 foiz), Turkiya (ulushi 5,0 foiz), Qozog'iston (ulushi 2,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Karmana t.	60	83,3 %	Xatirchi t.	10	111,1 %
Navoiy sh.	56	74,7 %	Navbahor t.	8	72,7 %
Nurota t.	16	69,6 %	Tomdi t.	8	133,3 %
Qiziltepa t.	16	123,1 %	Uchquduq t.	5	62,5 %
Zarafshon sh.	14	77,8 %	G'ozg'on sh.	4	100,0 %
Konimex t.	10	142,9 %			

*2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 116 tasi qo'shma korxonalar, 102 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

*2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar**

<b>18</b>	Navoiy shahri	<b>38</b>
<b>7</b>	Zarafshon shahri	<b>7</b>
<b>2</b>	G'ozg'on shahri	<b>2</b>
<b>5</b>	Konimex tumani	<b>5</b>
<b>8</b>	Qiziltepa tumani	<b>8</b>
<b>4</b>	Navbahor tumani	<b>4</b>
<b>36</b>	Karmana tumani	<b>24</b>
<b>5</b>	Nurota tumani	<b>11</b>
<b>2</b>	Tomdi tumani	<b>6</b>
<b>4</b>	Uchquduq tumani	<b>1</b>
<b>7</b>	Xatirchi tumani	<b>3</b>

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish  
va tizimli xizmat  
koʻrsatish boʻlimi  
Tel.: 79.223.42.67